

**“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK
TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”
mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**O‘ZBEK TILIDAN O‘QUV TOPSHIRIQLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Nigora Umarova,

Islom Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti,

*“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri
v.b., p.f.n., dotsent*

umarovanigora22@gmail.com

Annotatsiya. Maqola o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan. Ta’limning sisatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vostilar o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. Maqolada o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishda zarur bo‘lgan lingvoodidaktik talablar, til va nutqiy kompetensiyalar, zamonaviy dars javob berishi kerak bo‘lgan umumiy talablar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv topshiriqlari, til ta’limi, kompetensiya, nutqiy qobiliyat, psixologik omillar, ong, bilim va ko‘nikma.

Аннотация. Статья посвящена вопросам изучения педагогических и психологических основ совершенствования учебных заданий. Учебные задания являются важнейшими показателями, определяющими качество образования, и средствами,участвующими как в формирующем, так и в проверочном процессе. В статье представлены лингводидактические требования, языковые и речевые компетенции, необходимые для совершенствования учебных заданий, а также общие требования, которым должен отвечать современный урок.

Ключевые слова: учебные задачи, изучение языка, компетентность, речевая способность, психологические факторы, сознание, знания и навыки.

Abstract. The article is devoted to the study of the pedagogical and psychological foundations of improving educational tasks. Educational tasks are the most important indicators that determine the quality of education, and means involved in both the formative and testing processes. The article presents linguodidactic requirements, language and speech competencies necessary to improve educational tasks, as well as general requirements that a modern lesson must meet.

Key words: learning tasks, language learning, competence, speaking ability, psychological factors, consciousness, knowledge and skills.

Til o‘qitish metodikasining eng muhim elementi – o‘quv topshiriqlari ekan, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va o‘rni nihoyatda muhim. Bu o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganishni taqozo qiladi. “Ta’lim mazmuni sirasida talabalarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim”¹ligini belgilaydi.

¹Yo‘ldosheva D. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari.–T.: “Fan”, 2006. – 11-b.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Ta’limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar o‘quv topshiriqlari – mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular – o‘zbek tili ta’limi mazmunini, o‘qitish metodikaning asosini tashkil etadi.

Nutqiy qobiliyatni shakllantirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va talabaning umumiy ta’limiy ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liqdir. Tilshunoslik fanining asoschisi Gumbolt nutqni til mahsuli sifatida yuzaga kelishini², Do‘ Sossyur esa, til nutq orqali reallashuvini ko‘rsatib o‘tganlar. Do‘ Sossyur ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilni imkoniyat, nutqni esa, yuzaga chiqadigan hodisa sifatida tilning ifoda vositalaridan foydalanilaishini alohida ta’kidlaydi³.

Nutq nutq a’zolarining harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Ruhiy hodisa bo‘lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o‘tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutq nutq faoliyatining mahsulotidan, ma’lum shaklga kirishidan iborat.⁴ “...yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta’sir qilmay ilozi yo‘q”.⁵

Til tashuvchisining shakllanish darajasiga ta’sir qiluvchi psixologik shartlar orasida lisoniy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Insonda nutqning shakllanishi faqat maktab ta’limi jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun ongli hayotida davom etadi.

O‘zbek tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarnining shakllanishi psixologik omillarga ham bog‘liq bo‘lib, unda nutqiy ko‘nikmalar – doimiy intellektual rivojlanish: ruhiy jarayonlar (xotira – vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy); insonning ma’naviy boyligi – doimiy ma’naviy rivojlanish, axloqiy me’yorlar, avvalo, muloqot me’yoriga rioya qilish kabilarni o‘zi ichiga oladi.

Bu ham didaktik, ham psixologik (ruhiy) jarayon bo‘lib, jumladan, psixolog olim M. Neppning ta’kidlashicha, bola 2–3 yoshida o‘zbek tili grammatikasini egallay boshlaydi, chunki boshqa odamlarning nutqini anglab, so‘zlar kombinatsiyasi va jumlalar tuzilishida ongosti sezgilarini orqali kodlangan ob’ektiv qonuniyatlarni, ko‘plab ajdodlarning tajribasini qabul qiladi. Odam ongida nutqi rivojlanishi bilan bir

² Гумбольдт В. О мышлении и речи // В. Гумбольдт. Избранные труды по языкоznанию. — М.: “Прогресс”, 1984.

³ Соссюр Ф. Труды по языкоznанию. М.: “Прогресс”, 1977. С. 52—53.

⁴ Usmonov S. Umumiyl tilshunoslik. Toshkent, 1972, 144 bet.

⁵ Beruniy. Tanlangan asarlar, N1 том, 64 bet. Keyingi ko‘chirmalar ham o‘sha asarning 64 betidan olindi.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

qatorda, ongostida mumkin bo‘lgan harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi⁶.

L.S.Vgotskiy, I.YA. Zimnyaya, A.A. Leontev, S.L. Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlari tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati o‘zbek tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. I.YA. Zimnyayaning fikricha, “O‘zbek tilining kommunikativ rivojlanishi”ni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqish kerak:

- lug‘at miqdori (leksik minimum);
- nutqiy malakalarni egallashning mohirlik darjasи;
- fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darjasи;
- matnni o‘qish sur’ati darjasи;
- yozma nutq ko‘nikmalarinining shakllanish darjasи;
- kognitiv qiziqishlarning shakllanish darjasи;
- umumiy dunyoqarash darjasи.⁷

Muloqot qilish uchun zarur bo‘ladigan kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- til kompetensiyasi;
- nutq kompetensiyasi;
- pragmatik kompetensiya;
- kommunikativ kompetensiya.

Mazkur talablarni amalga oshirish, kompetensiyalarni shakllantirish, albatta, til ta’limida maxsus o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta’limning afzalliklarini o‘rganib chiqishni talab etadi.

Asosiy til birligi sifatida denotativ va konnotativ vazifalarni bajaruvchi so‘zni o‘rgatishda talabani uning ma’noviy qirralarini anglay olish hamda nutqiy vaziyatlarga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olishga o‘rgatish o‘zbek tili ta’limining birlamchi vazifasidir.

⁶Нэпп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения –М., 2007. –512 с.
⁷Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

Biroq, buning o‘zi yetarli emas. Til ta’limining keyingi vazifasi o‘rganilgan so‘zlarni qo‘shish orqali so‘zlovchiga o‘z fikrini to‘liq, tushunarli yetkazib bera olish va ayni paytda suhbatdoshning ifodalagan fikridagi mazmun-mohiyatni anglash.

Til ta’limiga kompetensiyaviy yondashuvda aynan shu jihatlar e’tiborga olingan holda tayanch va tilga oid kompetensiyalar alohida ajratib berilgan. Tayanch kompetensiya tarkibida berilgan kommunikativ kompetensianing vazifasi belgilab berilgan.⁸ Ushbu DTSdan xususiy kompetensiyalar tarkibiga til va nutqiy kompetensiyalar kiritilgan (DTS, 2017).

DTS talablari asosida o‘zbek tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o‘quv topshirig‘i zamon talabiga mos va samarali bo‘ladi:

- bir o‘quv topshirig‘ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko‘nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- talablarning o‘quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi;
- o‘quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun’iy intellekt bilan to‘g‘ri muloqot qila olishi;
- o‘quv lug‘atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlari muammoli o‘qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak:

- talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;
- talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda mustahkam bo‘lishiga;
- nostandard muammolarni ko‘ra oladigan, o‘rnata oladigan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos topshiriqlar ishlab chiqishga erishish lozim.

Davlat ta’lim standartlari mazmunida ijodiy tafakkur sohiblarini tayyorlash, talabani mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish vazifasi ham mavjud. Shu ma’noda zamonaviy dars qanday tashkil etilishi, o‘qituvchi o‘z talablari bilan qanday muloqot qilishi, qanday topshiriq va savollar berish asosiy masala hisoblanadi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo‘lgan umumiyl talablar quyidagilardan iborat:

⁸ Kompetension yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti. – Toshkent. 2017.

“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI” mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta’lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish.
 2. Darsni o‘quv topshiriqlaridan o‘rinli va maqsadli foydalangan holda amalga oshirish.
 3. Talabalarning bilish faoliyati uchun tegishli bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish.
 4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog‘lanishlarni e’tiborda tutish.
 5. Ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog‘lanish, talabalarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish.
 6. Shaxsning barcha muloqot uchun zarur bo‘lgan barcha nutqiy malaklarini rivojlantirish, natijalariga ko‘ra rag‘batlantirish va faollashtirish.
 7. O‘quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning barcha bosqichlarida mantiqiyligi va emosi o‘zbekligi mezonlarini hisobga olish.
 8. O‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ta’lim resurslaridan samarali foydalanish.
 9. O‘quv topshiriqlarini talabalarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash.
 10. O‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko‘zda tutish.
 11. O‘quv topshiriqlari talabada bilim olish, fikrlash, nutqiy ko‘nikmalarni egallahdan tashqari, o‘zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.
- Metodikaning eng kichik unsurlaridan biri bo‘lgan o‘quv topshiriqlari o‘zbek tili ta’limini to‘g‘ri yo‘lga olib chiquvchi muhim richaklardan biri hisoblanadi.
- Milliy qadriyatlar, jumladan, o‘zbek tilini mukammal bilmasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘zbek tili o‘qitish metodikasida nimani, qanday o‘qitish masalasi antik davrdan to bugungi kunga qadar muammo bo‘lib kelgan. Bu tabiiy hol, albatta, taraqqiyot metodikaga bog‘liq bo‘lganligi bois, zamon o‘z talabini qo‘yadi, metodika mazkur buyurtmani bajaradi. Shuning uchun ham nimani qanday o‘qitish masalasi doimiy dolzarblikka egadir.⁹ Bu borada o‘quv topshiriqlari masalasining “O‘zbek tili” darsliklari mazmunida berilishi, ularda o‘quv topshiriqlarining vazifa jihatidan farqlanishi, o‘quv topshiriqlariga munosabat tahliliy o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

⁹ Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: “Bayoz”. 2018. 18-b.

**“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK
TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”
mauzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldosheva D. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari.—T.: “Fan”, 2006.
2. Гумбольдт В. О мышлении и речи // В. Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. — М.: “Прогресс”, 1984.
3. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. М.:“Прогресс”, 1977.
4. Usmonov S. Umumiyl tilshunoslik. Toshkent, 1972.
5. Beruniy. Tanlangan asarlar, N1 tom.
6. Нэпп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения –М., 2007.
7. ДжонДьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы – Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. – М., 2002.
8. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981.
9. Kompetension yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti. – Toshkent. 2017.
10. Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –Т.: “Bayoz”. 2018.